

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI

Normurodov Xusan Eshmaxmatovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti katta o‘qituvchi

ORCID: 0009-0002-6560-4641

Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti, iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: kakhramanovaaa@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilgan soliq islohotlarining biznes muhitiga ta’siri tahlil qilinadi. Soliq tizimidagi o‘zgarishlar, xususan, soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliqqa tortish jarayonlarining soddalashtirilishi va soliq ma’muriyatchiligining shaffofligini oshirish orqali kichik va o‘rta bizneslarga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib chiqilgan. Maqola soliq islohotlarining iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rnini ochib beradi hamda soliq tizimidagi soddalashtirishning kichik biznesning o‘shiga ta’siri ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: soliq islohotlari, barqarorlik, raqobatbardoshlik, diversifikatsiya, biznes muhiti, soliq ma’muriyatchiligi, soliq kodeksi.

Аннотация

В статье анализируется влияние налоговых реформ в Узбекистане на деловую среду. Рассматриваются изменения в налоговой системе, в частности снижение налоговых ставок, упрощение процесса налогообложения и повышение прозрачности налогового администрирования, а также их положительное влияние на малый и средний бизнес. В статье подчеркивается роль налоговых реформ в стимулировании экономического развития и повышении конкурентоспособности, а также показано, как упрощение налоговой системы способствует росту малого бизнеса.

Ключевые слова: Налоговые реформы, стабильность, конкурентоспособность, диверсификация, бизнес-среда, налоговое администрирование, налоговый кодекс.

Abstract

This article analyzes the impact of tax reforms in Uzbekistan on the business environment. Changes in the tax system, particularly the reduction of tax rates, simplification of the taxation process, and increasing the transparency of tax administration, are examined in terms of their positive effects on small and medium-sized businesses. The article highlights the role of tax reforms in boosting economic development and enhancing competitiveness, and demonstrates how the simplification of the tax system contributes to the growth of small businesses.

Keywords: Tax reforms, stability, competitiveness, diversification, business environment, tax administration, tax code.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda samarali moliyaviy va fiskal mexanizmlarga tayanadi. Ayniqsa, soliq tizimi davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo‘lishi bilan birga, iqtisodiyotni tartibga soluvchi kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Soliqlar orqali nafaqat davlatning moliyaviy ehtiyojlari qoplanadi, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish kabi muhim strategik maqsadlar ham amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, xususan, soliq siyosatidagi tub o‘zgarishlar mamlakatda qulay biznes muhitini yaratish, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy o‘rta sishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, soliq ma‘muriyatchiligini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish kabi chora-tadbirlar xalqaro andozalarga mos zamonaviy soliq tizimini shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, soliq siyosatining takomillashuvi xalqaro tajriba bilan uyg‘un holda olib borilayotgani, ayniqsa rivojlangan davlatlar — Yaponiyaning iqtisodiy islohotlari misolida tahlil qilinayotgani, O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlar va o‘rganilishi lozim bo‘lgan amaliy tajribalarni taqdim etmoqda. Shu sababli, soliq tizimidagi islohotlarni chuqur tahlil qilish, ularning kichik va o‘rta biznesga ta‘sirini o‘rganish, xalqaro tajribani solishtirish orqali milliy soliq siyosatini yanada takomillashtirish masalalari dolzarb ilmiy-ijtimoiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sh. Qurbonov, A. Qodirov va T. Jo‘rayev tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan “O‘zbekiston soliq siyosatining iqtisodiy o‘rta sishga ta‘siri” tadqiqotida soliqlarni kamaytirish orqali kichik biznes subyektlarini rag‘batlantirish, iqtisodiy faollikni oshirish va soliq tushumlarini kengaytirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotida soliq siyosatining ijobiy ta‘siri tahlil qilingan.

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash markazi tomonidan 2022-yilda olib borilgan “Kichik biznes uchun soliq imtiyozlari” nomli tadqiqotda soliq imtiyozlarining kichik biznes rivojlanishiga ta‘siri atroflicha tahlil qilinib, soliq imtiyozlarining bizneslarni rivojlantirishdagi o‘rni, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘rta sish sur‘atlarini tezlashtirish mumkinligi ta‘kidlangan.

Rasulov 2021-yilda chop etgan “O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kichik va o‘rta biznesning roli” nomli maqolasida kichik va o‘rta biznesning o‘rta sishga hissa qo‘shish uchun soliq siyosatini takomillashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. U kichik biznesga soliq yukini yengillashtirish orqali ularga katta rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va shu bilan birga davlat byudjetini mustahkamlash muhimligini qayd etadi.

Xususan, Malcolm Gillisning “Tax Reform in Developing Countries” asarida rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, Yaponiya tajribasi asosida soliq islohotlarining

iqtisodiy tiklanishdagi o'zni chuqur tahlil etilgan va Yaponiyada QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) joriy etilishi orqali daromadlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va ijtimoiy adolatni saqlab qolish strategiyalari yoritilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasidagi soliq tizimi islohotlarini tahlil qilish va ularning kichik hamda o'rta biznes subyektlariga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Tahliliy usullardan foydalanish asosida O'zbekistonning 1991-yildan boshlab hozirgi kungacha olib borgan soliq siyosatidagi asosiy bosqichlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar, soliq stavkalari va soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq islohotlar o'rganildi. Shuningdek, soliq yukining kamaytirilishi va uning iqtisodiy samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida baholandi.

O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar, xususan, Yaponiyaning soliq tizimidagi tarixiy islohotlari bilan solishtirildi. Bu orqali xalqaro amaliyotdan o'rganilishi mumkin bo'lgan samarali yo'nalishlar aniqlanib, ularni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq islohotlari — soliq nazariyasi va amaliyotini muvofiqlashtirish asosida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq yordamida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan davlat tadbirlari. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari strategiyasi huquqiy va demokratik davlat barpo etish konsepsiyasi asosida shakllanmoqda.

1991-yildan boshlab O'zbekistonda o'tkazilgan soliq islohotlarini uch asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich — 1991–1994-yillarda soliqqa oid qonun hujjatlarini yaratish, tamomila yangi soliqlar va to'lovlar tizimini barpo etish hamda ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish; moliyaviy mablag'lar infratuzilmasini rivojlantirish, o'z-o'zini strategik resurslar bilan ta'minlashga erishish maqsadlarida qayta taqsimlash; narxlarning o'sishi va ishlab chiqarishning pasayishi sharoitida aholining turmush darajasi pasayib ketmasligi va ijtimoiy barqarorlikni saqlash; mustaqil tizim sifatida davlat soliq xizmatini shakllantirish vazifalari bajarildi.

Ikkinchi bosqich — 1995–1999-yillarda soliq tizimini takomillashtirish va korxonalariga nisbatan soliq yukini kamaytirish bo'yicha soliq islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda soliqlarga doir mavjud qonun hujjatlari asosida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ishlab chiqildi va 1997-yilda qabul qilindi.

Uchinchi bosqich — 2000-yildan boshlab soliq islohotlari qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar asosida fuqarolar va korxonalar uchun soliq yukini yanada kamaytirish, ayrim soliq turlarini bekor qilish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, samarali soliq tizimi tamoyillarini yanada to'liq

ro'yobga chiqarish, jahon andozlariga mos soliq tizimini bosqichma-bosqich barpo etishga yo'naltirilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan 2017-yildan boshlab soliq tizimiga kiritilgan islohotlar soliq stavkalarini soddalashtirish va biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yirik chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son² Farmoniga ko'ra, "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Unga ko'ra, soliq organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarlicha joriy etilmasligi, soliq nazorati va huquqiy madaniyatni oshirishda muammolar mavjud edi.

Bundan tashqari, soliq tizimining murakkabligi, soliq qonunchiligining o'zgaruvchanligi va sudgacha hal etish mexanizmlarining yetarlicha ishlatilmasligi soliqlarning to'liq yig'ilishini va biznes muhitining barqaror rivojlanishini cheklab kelmoqda. Bu muammolarni hal qilish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shish mumkin. Soliq islohotlarini davom ettirish va ularni jahon andozlariga moslashtirish, biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni jalb qilish muhim omil bo'lib qolmoqda. Soliq islohotlari jarayonida eng muhim o'zgarishlardan biri — soliq stavkalarining kamaytirilishi va soddalashtirilishi bo'ldi.

Soliq stavkalarining pasayishi, ayniqsa, kichik va o'rta bizneslar uchun juda qulay sharoitlarni yaratdi. Bu bizneslarga soliq to'lovlarni kamaytirish imkoniyatini berib, o'z faoliyatini kengaytirishga yordam bermoqda. 2024-yil 18-dekabrda bo'lib o'tgan majlisda Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov 2025-yilda iqtisodiy soliq turlari bo'yicha soliq stavkalari o'zgarishsiz qolishini ma'lum qildi.

Bu kabi imtiyozlarning joriy etilishi, ya'ni soliq stavkalarining oshmasligi, O'zbekistonda biznes doirasining kengayishi va yangi bizneslarning tashkil qilinishi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes uchun amalga oshirilgan soliq islohotlari bizneslarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Soliq tizimining soddalashtirilishi va soliqqa tortish jarayonlarining yanada aniq va shaffof bo'lishi kichik va o'rta bizneslarni raqobatga moslashishga yordam bermoqda.

Bundan tashqari, soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratib, yangi bozorlar va mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon bermoqda. Raqobatbardosh biznes muhitining shakllanishi kichik biznesning o'sishiga yordam bermoqda va iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda rivojlangan

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq_islohotlari

² <https://lex.uz/docs/-3271159>

va rivojlanayotgan davlatlarning tajribasini hamda ular qoʻllagan islohotlarni oʻrganish muhim ahamiyatga ega.

Bunga misol tariqasida Yaponiyaning urushdan keyingi iqtisodiyotini qayta qurishi va 1986-yildagi Yamaykadagi soliq tizimi hamda islohotlarini tahlil qilgan Malcolm Gillisning “Tax Reform in Developing Countries” kitobida keltirilgan tadqiqot natijalarini koʻrsatish mumkin¹. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya oʻz iqtisodiyotini tiklab olishi uchun soliq tizimini isloh qilishi zarur edi. Yaponiyaning iqtisodiy oʻsishini qoʻllab-quvvatlash, davlat byudjetini barqarorlashtirish va xalqaro bozor bilan yanada integratsiya qilish uchun QQS (qoʻshilgan qiymat soligʻi) joriy etilishi davlatning iqtisodiy siyosatining muhim qismi boʻlib, inflyatsiyani nazorat qilish va davlat byudjetiga barqaror tushumlarni taʼminlash maqsadida bu egri soliq turi joriy etilgan.

QQSning amalda qoʻllanilishi bilan Yaponiya hukumati aholi oʻrtasida nizolar kelib chiqmasligi uchun daromad soligʻining progressiv tizimini (daromadlar oshgan sari soliq stavkalarining oshib borishi) saqlagan holda soliq stavkalarini pasaytirishga harakat qilgan va natijada aholining jamgʻarma qilishini ragʻbatlantirib, ijtimoiy adolatni taʼminlagan. Yaponiyadagi jamgʻarma tizimi va soliq siyosati bir-biriga chambarchas bogʻliq boʻlib, iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash va davlatning daromadlarini oshirishga yordam bergan. Yaponiyada soliq siyosati jamgʻarma qilishni ragʻbatlantiradigan mexanizmlarga asoslangan.

Hukumat jamgʻarmalarni koʻpaytirish uchun soliq imtiyozlarini taqdim etgan. Masalan, jamgʻarma uchun belgilangan soliq stavkalari kamaytirilgan. Korxonalar oʻzlarining foydalari va daromadlarini jamgʻarmaga oʻtkazganda, bu mablagʻlar investitsiyalar sifatida ishlatilsa, ular uchun soliq imtiyozlari berilgan. Bu soliq tizimi korxonalarni koʻproq jamgʻarma qilishga va iqtisodiy faoliyatlarini kengaytirishga undagan. Oʻzbekistonda ham Yaponiyaning ushbu tajribasidan foydalanish orqali soliq imtiyozlarini taqdim etish va jamgʻarma madaniyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy oʻsish va barqarorlikni oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekistondagi soliq islohotlari iqtisodiy rivojlanish va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlar boʻlib, ular mamlakatda yangi biznes imkoniyatlarini yaratishga va raqobatni oshirish orqali kichik bizneslarning takomillashuviga olib kelmoqda.

Oʻzbekistondagi soliq islohotlari nafaqat mamlakatning iqtisodiy oʻsishiga, balki xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Soliq tizimining soddalashtirilishi, soliq stavkalarining pasayishi va soliq maʼmuriyatchiligining shaffofligi biznes muhitining rivojlanishiga yordam bermoqda.

Soliq tizimidagi oʻzgarishlar kelajakda Oʻzbekistondagi kichik va oʻrta bizneslar uchun yanada qulayroq va samarali sharoitlar yaratib, raqobatbardosh hamda barqaror biznes muhitini shakllantirishga yordam berishda davom etishi kerak. Kelajakda Oʻzbekistonda soliq tizimining yanada soddalashtirilishi, soliq maʼmuriyatchiligining

¹ Malcolm Gillis, “Tax reform in developing countries” (March, 1989) 69/554.

yaxshilanishi va soliq siyosatining yanada raqobatbardosh va samarali bo'lishi, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish hamda biznes muhitini rivojlantirish uchun jahon andozalariga moslashtirilgan soliq siyosatini yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov, S. R. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА И АНАЛИЗА ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ. *Theoretical & Applied Science*, (6), 461-463.
2. Qudbiyev, N. T., Ulug'bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(1), 449-457.
3. Abduazizov, S. R. (2021). DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. *Scientific progress*, 2(8), 250-256.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5. Asia and Pacific Department and Fiscal Affairs Department "Raising the consumption tax in Japan: WHY? WHEN? HOW?" (June 16, 2011) Prepared by a team led by M. Keen, M. Pradhan, K. Kang, and Ruud de Mooij.
6. Ibragimova, Z. (2021). BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING HOLATI VA UNING FAOLIYATINI VAHOLASH. *Scientific progress*, 2(2), 811-815.
7. Кудбиев, Д. (2021). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In *Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст* (pp. 119-124).
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq_islohotlari
9. <https://lex.uz/docs/-3271159>
10. [2025-yilda soliq stavkalari o'zgarmaydi](#)



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**